



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

QORAQALPOG'ISTON SHAROITIDA ESHKI VA QO'YLAR STRONGILYATOZLARI EPIZOOTOLOGIYASI

Mavlanov S.I., Allamberganov D.M., Qayipbekova N.M.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Nukus filiali

Kirish. Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik, xususan echkichilik aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda va turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda tomorqa mahsulotlari chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, ularning mahsuldorligini oshirish, turli yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazib borishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jalik hayvonlari orasida uchrab turadigan parazitlar kasalliklari orasida, ayrim gelmintozlarning tarqalishi va keltiradigan iqtisodiy zarari bo'yicha muhim o'rin egallaydi. Gelmintlar - ichki parazit qurtlar bo'lib, ular hayvon organizmida yashab, oziq moddalarni so'rib, organizmda intoksikatsiya va immunitetni pasayishiga olib keladi. Bu esa Respublikamizda mazkur kasalliklarning tarqalishini, epizootologik holatini va ularga qarshi kurash choralarini izlab topishni talab etadi. Echkichilikni barqaror rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillar ham mavjud. Jumladan, keyingi yillarda echkilar orasida gelmintoz kasalliklarining keng tarqalganligi ularning nasl ko'rsatkichlarining pasayishiga, mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hatto nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, strongilyatoz kasalliklari echkichilik xo'jaliklariga katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Kasallik davrida echkilarning fiziologik xususiyatlari pasayadi, bezovtalanadi, ovqat hazm qilish tizimi organlari ishi izdan chiqadi, hayvonning ichi ketadi yoki qotadi, o'sish va rivojlanishdan orqada qoladi, oriqlaydi.

Ushbu guruh gelmintozlariga marshallagioz, nematodiroz, gemonxoz, ostertagioz, trixostrogilyoz, xabertioz, bunostomoz, ezofagostomoz kabi kasalliklar mansub bo'lib, ularning qo'zg'atuvchilari hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimlarida parazitlik qilib hayot kechiradi.

Strongilyatoz kasalliklarini oldini olish maqsadida o'tkaziladigan degelmintizatsiya tadbirlari hudud sharoitini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Jumladan, cho'l zonalarida yosh uloqlar ikki marta oktyabr va yanvar oylarida degelmintizatsiya qilinsa, katta yoshdagi echkilar orasida bu tadbir yanvar va iyun oylarida o'tkaziladi.

Sug'oriladigan hududlarda strongilyatozlarga qarshi yosh hayvonlar yanvar oyida yoki fevralning boshlarida, katta yoshdagilari esa kuz mavsumida - uyur yaylovdan qaytgandan keyin gelmintsizlantiriladi. Ular orasida (asosan nimjon echkilarda) ikkilamchi tanlab o'tkaziladigan gelmintsizlantirish tadbirlarini ulotirish mavsumidan keyinga rejalashtirish kerak.

Cho'l-yaylov hududlarida echkilar strongilyatozlarga qarshi qochirish mavsumidan keyin bir marta gelmintsizlantirilsa yetarli hisoblanadi. Dekabr oyining oxirlari yoki yanvarning boshlarida va tuqqandan keyin tanlab o'tkazilgan degelmintizatsiya ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu zonada xonalar ikki marta - oktyabr oyi boshida va mart oyida dezinfeksiya qilinadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari Nukus shahri va Nukus tumanidagi aholi xo'jaligidagi qo'ylarda amalga oshirildi. Bunda Antigelmint mineral tuzli yalamani samaradorligi strongilyatoz bilan zararlangan echkilarda o'rganildi. Yalama 100 bosh echkiga quyidagicha tayyorlandi: 70 kg osh tuzi tekis beton ustiga bir tekisda yoyiladi. Uning ustiga quritilgan va un kabi maydalangan 28 kg gilmoya (bentonit) sepiladi, keyinchalik ular ustiga 2 kg albendazol oz-ozdan qo'shib boriladi, ularning barchasi yaxshilab aralashtirilib suv bilan namlanadi. Maxsus press apparatda g'isht holatiga keltirilib bir kun davomida xona haroratida quritiladi.

Gelmintlar bilan zararlangan 20 bosh echki ajratib olinib 2 guruhga ajratildi. Birinchi guruhdagi qo'ylar tajriba guruhi hisoblanib bu guruhga antigelmintli mineral tuzli yalama berilgan bo'lsa, ikkinchi guruhdagi qo'ylar nazoratda bo'lib kunlik ratsion asosida oziqlantirib borildi.

Tajriba o'tkazishdan oldin, tadqiqot davomida va yakunida echkilarning tirik vazni o'lchab borildi hamda klinik ko'rikdan o'tkazilib tekshirildi. Bundan tashqari tajriba davomida echkilardan najas namunasi olinib gelmintoovoskopiya usuli asosida tekshirilib invaziya ekstensivligi va intensivligi aniqlanib borildi.

Tajriba yakunida har bir guruhdan qo'yni cho'qintirib uning ichki organlari filialdagi Patologik anatomiya tana jarrohlik sud ekspertizasi laboratoriyasida to'liq gelmintologik tekshiruvdan o'tkazildi. Echkilari antigelmintli mineral tuzli yalamadan dastlabki kunlarda 6-8 grammdan iste'mol qilgan (1-jadval).

1-jadval

To'liq gelmintologik tekshirish natijasi

Guruhlar	Qo'ylar bosh soni	Marshallia marshalli	Trichostrongylus Colimbifor	Nematodirus Filicolis	Chabertia Ovis	Dictiocaulus Filaria	Trichocephalus Ovis
Tajriba guruhi	60	-	-	-	-	-	2,8 ± 0.88
Nazorat guruhi	10	114.4 ± 3.1	26.8 ± 3.86	221.4 ±10.6	8 ± 1.18	235.6± 6.38	228.2± 9.5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, unda 1-guruh qo'ylarda jami 6 nusxadan 8 nusxagacha o'rta hisobda 2,8 nusxa trixotsefalalar topildi. Nazorat guruhidagi qo'ylarda jami 4172 nusxa parazitlar topilib o'rta hisobda 834,4 nusxa miqdorida tushdi. Shundan Marshallagiylar o'rtacha 114,4±3,1 nusxa, trixostrogiluslar o'rtacha 26,8±3,86 nusxa, nemotodiruslar o'rtacha 221,4±10,6 nusxa, xabertiylar o'rtacha 8,0±1,18 nusxa, diktiokaulalar 235,6±6,38 nusxa, trixotsefalalar o'rtacha 228,2±9,5 nusxa topildi.

Qo'ylarning strongilyatozlariga qarshi antigelmintiklarni qo'llash

Qo'ylarning strongilyatozlariga qarshi kurash va oldini olishda, uning hududiy epizootologik xususiyatlariga, bioekologiyasiga, kasallik qo'zg'atuvchilarining invaziya intensivligiga e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga sinovdan o'tkazilayotgan preparatlarning ta'sir mexanizmi va qo'llash jarayonlariga, tannarxiga ko'ra kasallikni oldini olish va davolash usulini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Respublikamizda bugungi kunda parvarishlanayotgan chorva hayvonlarining, xususan, qo'yni asosiy qismi aholi qaramog'ida saqlanayotgani, shu sababli barcha shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida gelmintozlarga va boshqa xavfli parazitlar kasalliklarga qarshi o'tkaziladigan davolash va profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida, sifatli va rejali tarzda o'tkazishni talab etadi. Bugungi kunda respublikamiz hududida ko'plab xususiy veterinariya dorixonalarining tashkil etilishi, chetdan ko'plab yangi antigelmintik va boshqa dori preparatlarini olib kelinishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi vaqtda bu dorixonalarda gelmintozlarga, xususan strongilyatozlarga qarshi qo'llaniladigan har xil shakldagi va tarkibdagi antigelmintiklar mavjud. Nematodozlardan strongilyatozlarni davolash maqsadida uzoq yillar davomida albendazol, alben, gelmisid, febtal, mesalben, fenbendazol, tetramizol, parbendazol, atsetamizol kabi preparatlar qo'llanilib kelingan. Lekin so'nggi yillarda bizga xorijiy davlatlardan yangi dori vositalari kirib kelishi kuchaydi, xususiy veterinariya dorixonalari faoliyat ko'rsata boshladi. Natijada strongilyatozlarga qarshi qo'llaniladigan dori vositalari turi o'zgardi, eski antigelmintiklar o'rnini yangilari egalladi. Bunday yangi kimyoviy preparatlarga misol qilib barcha albendazolli (bendaz, albendazol,

albenol, albazen, albendeks va boshqalar) preparatlarni, levazan oral, vormit, alvet kabi ko'plab kimyoviy preparatlarni ko'rsatish mumkin.

Shuni aytish kerakki, barcha albendazolli preparatlar strongilyatozlarning lichinkalik shakliga, ya'ni ular qo'zg'atadigan surunkali strongilyatozlarga samara beradi. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra invaziya intensivligi juda yuqori bo'lganda bu preparatlarni 15-20 kundan keyin qayta qo'llashga, kuchli intoksikatsiyani oldini olish maqsadida esa ularni bir necha marta yarim dozadan qo'llashga to'g'ri keladi. Barcha albendazolli preparatlar hayvonlarga og'iz orqali ichiriladi, ularni har bir hayvon turiga qo'llash miqdori yorliqda aniq ko'rsatilgan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bizlar o'z tadqiqotlarimizda mayda shoxli hayvon strongilyatozlariga qarshi albendazolli antigelmintiklar, mineral tuzli yalamalar, levazan oral, alvet, vormit kabi preparatlardan foydalandik. Bu preparatlarni Nukus shahridagi Bo'z ovul fuqarolar yig'ini aholi qo'yni strongilyatozlariga qarshi sinovdan o'tkazdik.

Marshallagioz kavsh qaytaruvchi hayvonlarning surunkali sayoz yer strongilyatoz kasalligi bo'lib, Marshallagia avlodiga mansub Marchallagia marchalli va M.mongolica kabi gelmintlar ularning va ba'zan ingichka bo'lim ichaklarida parazitlik qilishi oqibatida kelib chiqadi. Parazit asosan geogelmint bo'lib, kuz va qish mavsumlarida ko'proq uchraydi. Shuning uchun bu mavsumlarda echkilar ozib, oriqlaydi, tishlarini g'ijirlatadi, juni to'kilib ketadi va mahsuldorligi pasayib ketadi. Ushbu gelmintoz kasalliklariga qarshi kurashish uchun o'z vaqtida gelminsizlantirish ishlarini olib borish va kasallikka qarshi yangi antigelmintiklarni izlab topish hamda ularni qo'llash usullarini takomillashtirish ushbu kasalliklarga qarshi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asosiy o'rin tutadi.

2-jadval

Echkilarning marshallagioz kasalligi bilan zararlanish darajasi

Guruhlar	Echkilar bosh soni	Flyuborn usulida tekshirilganda	
		Marshallagioz	%
I-guruhga	40	18	45
II-guruhga	20	8	40

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarali bo'lishi uchun tavsiya etilgan antigelmintiklar yuqori samara berishi bilan bir vaqtda ular organizm uchun zararsiz va ekologik toza bo'lishi lozim. Yuqoridagilarga asoslangan holda, bizlar ayrim dorilarni ishlab chiqarish sharoitida marshallagioz kasalligi bilan zararlangan echkilarda sinovdan o'tkazdik. Tadqiqotlar davomida marshallagioz kasalligi qo'zg'atuvchisining epizootologiyasi, klinikasi, biologiyasi va turi o'rganilib, kasallikning invaziya intensivligi ham hisobga olindi (2-jadval).

Antigelmintik dorilarning marshallagioz kasallik qo'zg'atuvchilariga ta'siri ikkinchi jadvalda keltirilgan. Alvet kukunini echkilarni emiga qo'shib berilganda antigelmintning gelmintlarga ta'siri 85% ni tashkil etdi. Levozan oral suspenziyasini echkilarga og'iz orqali berilganda antigelmintning gelmintlarga ta'siri 95% ni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval

Echkilarning marshallagioz kasalligida antigelmintiklar samaradorligi

Guruhlar	Hayvon bosh soni	Antigelmintik nomi	Qo'llanishi	Samaradorligi, %
I-guruh	15	Alvet kukuni	Emga aralashtirib	85 %
II-guruh	15	Levozan oral suspenziyasi	Og'iz orqali	95 %

Sinovdan o'tkazilgan antigelmintiklarning iqtisodiy samaradorligi

Strongilyatoz kasalliklari Respublikamizning barcha mintaqalarida keng tarqalgan, ko'proq yosh hayvonlar orasida yil davomida uchraydi. Ular orasida trixostrogilyoz kasalligi strongilyatoz kasalliklari orasida eng ko'p tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Trixostrogilyozlar tarqalishining mavsumiylik turli zonlarda uchrashi va hayvonlarning

yoshiga bog'liqligi kabi ko'rsatkichlari o'rganilgan. Sug'oriladigan hududlarda echkilar trixostrogilyoz bilan o'rtacha 35,4% zararlangan. Bu ko'rsatkich qishda-38%, bahorda-44%, yozda-18% va kuzda-40% ni tashkil etdi. Yosh uloqlar trixostrogilyozlar bilan yilning barcha fasllarida zararlanishi mumkin. Tog' va tog' oldi hudularida trixostrogilyoz yilning barcha mavsumlarida va barcha yoshdagi qo'ylar orasida uchrab, o'rtacha zararlanish darajasi 48.4% ni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval

Echkilarni trixostrogilyoz kasalligi bilan zararlanish darajasi

Guruhlar	Echkilar bosh soni	Flyuborn usulida tekshirilganda	
		Trixostrogilyoz	%
I - guruh	40	8	20
II - guruh	40	10	25

Echkichilik otalarida strongilyatoz kasalliklarini oldini olish maqsadida yosh uloqlarni ikki marta oktyabr va yanvar oylarida gelmintsizlantirish, katta yoshdagi echkilarda bu tadbirni yanvar va iyun oylarida o'tkazish maqsadga muvofiq. Ular orasida ikkilamchi tanlab o'tkaziladigan gelmintsizlantirish tadbirlarini echkilarda uloqlash mavsumidan keyin amalga oshirish lozim.

5-jadval

Echkilarni trixostrogilyoz kasalligida antigelmintiklarni samaradorligi

Guruhlar	Echkilar bosh soni	Anitgelmintik nomi	Qo'llanishi	Antigelmintik larni gelmintlarga ta'siri, %	Samaradorligi, %e
I- guruh	15	Albendazol kukuni	Emga aralashtirib	85 %	90 %
II- guruh	15	10 % albazen suspenziyasi	Og'iz orqali	95 %	100 %

Birinchi jadvaldan ko'rinib turibdiki, unda qo'ychilik shirkat xo'jaligida 40 bosh echki gelmintsizlantirilganda ularni 8 boshida trixostrogilyoz kasalligi qo'zg'atuvchilari topilib, kasallik bilan zararlanish darajasi 20% ni tashkil etdi. Aholi echkilarining 40 boshi tekshirilganda 10 boshida trixostrogilyoz kasalligini qo'zg'atuvchilari va tuxumlari topilib trixostrogilyozning zararlanish darajasi 25% ni tashkil etdi.

Antigelmintik preparatlarning trixostrogilyoz kasalliklarini qo'zg'atuvchilariga qarshi samaradorligi o'rganildi. Jumladan, Albendazol kukuni echkilar yemiga qo'shib berilganda antigelmintikning gelmintlarga ta'siri 85% ni, antigelmintikning samaradorligi esa 90% ni tashkil etdi. 10 foizli Albazen suspenziyasini echkilarga og'iz orqali berilganda antigelmintning gelmintlarga ta'siri 95% ni, samaradorligi esa 100% ni tashkil etdi (5-jadval).

Xulosa Qoraqalpog'iston sharoitida strongilyatoz kasalliklari echkilar mahsuldorligiga katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqorida keltirilgan kompleks kurash choralari orqali ushbu kasalliklarning oldini olish, echkilarning sog'ligini saqlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Bu borada veterinariya xizmatlarini takomillashtirish va veterinariya profilaktika tadbirlarini samarali o'tkazish aholi va chorva egalari ongining oshirilishi bu yo'ldagi muhim qadamlardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Salimov B.S. Qurbonov SH., Islomova O.F. "Nematodiroz qo'zg'atuvchilari lichinkalarining noqulay ekologik omillarga chidamliligini o'rganish" // "Agrar fan yutuqlarida talabalarning ishtiroki" iqtidorli talaba va magistrnlarning ilmiy konferensiya materillari to'plami. Samarqand, 2010. B. -129-131.
2. Salimov B.S. "Zoonematodalarning taraqqiyoti, ekologiyasi, faunistik holati" // "Hayvonlar ekologiyasi va morfologiyasi" ilmiy to'plami, Samarqand, 2006. -B. 101-105.
3. Salimov B.S., Qurbonov J.X. Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida mayda shoxli hayvonlar nematodirozini tarqalishni o'rganish natijalari // "Agrar fani va ishlab chiqarishni rivojlantirishga yosh tadqiqotchilarning o'rni va istiqbolidagi vazifalari stajyor-tadqiqotchi izlanuvchi, katta ilmiy xodim izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchilarning mustahkam oila yiliga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumani. To'plam 1- qism. Samarqand, 2012. -B. 171-172.
4. Скрязин К.И., Психобалова Н.П., Шульц Р.С., Попова Т.И., Боев С.Н., Делямуре С.Л. Стронгияты СССР. Определитель паразитических нематод. Т.П., стронгият //Изд. АН СССР, М., 1952. -С. 890.
5. Dosumbetovich, AS, & Qutlymuratovich, SA, SA Qoraqalpog'istonda qoramollarda yashirin surunkali endometritni davolashning samarali usullari. *Academicia Globe* , 2 (05), 240-244.
6. Аvezимбетов, Ш. Д. (2020). МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЛАБОРАТОРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕКРЕТНОГО ХРОНИЧЕСКОГО ЭНДОМЕТРИТА. *Экономика и социум*, (12 (79)), 338-341.
7. Sh, A. va Taylakov, TI (2020). Paramfistomatoz sistematikasi, diagnostika usullari, epizootologiyasi, patogenez, kasallikning kelib chiqishi va yangi davolash usullari. *Amerika veterinariya fanlari va yovvoyi tabiatni kashf qilish jurnali* , 2 (06), 1-6.
8. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1778-1781.
9. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.
10. Shavkat, A., Kural, A., & Maryam, Y. (2025). THE IMPLEMENTATION MECHANISM OF DIGITAL TRANSFORMATION TO ENHANCE EDUCATIONAL EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(4), 93-97.

QO'YLARNING STRONGILYATOZLARI VA ULARNING EPIZOOTOLOGIK HOLATLARI

Mavlanov S., Allamberganov D.M., Jabbarbergenov I.B.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik, xususan echkichilik aholi turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, so'nggi yillarda echkilarda gelmintoz kasalliklarining keng tarqalganligi ularning mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Gelmintlar — ichki parazit qurtlar bo'lib, ular hayvon organizmida yashab, oziq moddalarni so'rib, intoksikatsiya va immunitet pasayishiga olib keladi. Bu holat echki naslining o'smasligi, sut kamayishi va hatto nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda tomorqa mahsulotlari bosh sonini ko'paytirish, ularning mahsuldorligini oshirish, turli yuqumli,